

**FARG'ONA VODIYSIDA ARGIOPE LOBATA (ARANEI, ARANEIDAE)
NING BIRINCHI MARTA QAYD ETILISHI**

Asiljon Abdukayimovich Sheraliyev
Farg'ona davlat universiteti magistranti

Kalit so'zlar: *Argiope, Farg'ona vodiysi, o'rgimchaklar, Argiope lobata*

Annotatsiya: Urg'ochi *Argiope lobata* (Pallas, 1772) o'rgimchak turi 2022 yilning iyun oyida Farg'ona viloyati Farg'ona tumani Oqbilol qishlog'i yqinida birinchi marta qayt etildi. B. Baxromva malumotlariga ko'ra Fargona vodiysida *Argiope* urug'iga mansub *Argiope bruennichi* qayd etilgan. Ilmiy manbalarda *Argiope lobata* ning Farg'ona vodiysida uchrashi qayd etilmagan. Bu o'rgimchak turi Farg'ona vodiysi uchun yangi qayd etilgan tur xisoblanadi.

Kirish. Araneidae oilasi O'rgimchaklar (Araneae) turkumiga kiradi (Foeliks, 1982). Araneida - eng keng tarqalgan o'rgimchak oilalaridan biridir. Ular 188 urug'dan iborat 3119 turni o'z ichiga oladi. (Platnick, 2011) [1]. Farg'ona vodiysi mintaqasida Araneidae oilasi mualliflar tomonidan qisman o'rganilgan [2]. Biroq, Farg'ona vodiysining o'rgimchak faunasi yaxshi o'rganilmagan. *Argiope* urug'i dunyo bo'ylab 88 turga ega.

Ushbu tadqiqot Araneidae faunasini inventarizatsiya qilish uchun 2021–2023 yillarda amalga oshirildi. Geografik joylashuvi jixatidan Farg'ona vodiysi juda boy biologik xilma-xillikka ega. Ushbu maqolada muallifi Farg'ona vodiysi faunasi uchun birinchi marta qayd etilgan *Argiope* jinsining bir dona turini qayt etdi. *Argiope lobata*(Pallas, 1772). *Argiope* (Audouin, 1826) *Gea* (Koch, 1843) va *Neogea* (Levi, 1983) avlodlari bilan birga *Argiopinae* (Simon, 1890) kenja oilasida joylashgan. Bu o'rgimchaklar jinsiy dimorf turlarni o'z ichiga oladi, ular o'zlarining ajoyib rang-barang urg'ochilari va noyob to'rlari bilan mashhur (Levi, 1983; Tan, 2018) [5, 6].

Materiallar va usullar.

Namuna 2022 yilning iyun oyida Farg'ona vodiysining janubiy qismidan topilgan (40°17'37"N 71°41'04"E). Namuna qo'lda yig'ish orqali to'plangan va 96% etanolda solingan. Protokolda ko'rsatilgan tadqiqotning asosiy ma'lumotlari, ob-havo sharoiti, yashash joyi va o'simlik turi - elektron jadvalda qayd etilgan. Identifikatsiya qilish uchun biz World Spider Catalog [7], Araneae Spiders of Europe [8] va Qazag'izton o'rgimchaklari [3] ko'rsatmalaridan foydalanildi. Namunalar Nikon 11-2486 stereomikroskopida tekshirildi. Kopulyatsiya organlari va habitusning fotosuratlarini Nikon 11-2486 birikma mikroskopiga o'rnatilgan Canon EOS 90 D kamerasi bilan olingan. Murakkab fokusli tasvirlar Canon Macro Photo Lens MP-

E65mm f/2.8 1–5X yordamida olingan. Bundan tashqari, biz umumiy uzunlik (TL) va boshko'krak (CL) uzunligi uchun natijalarni o'lchadik.

Natijalar va muhokama.

Farg'ona vodiysi uchun yangi bo'lgan Araneidae oilasining Argiope jinsiga mansub o'rgimchak haqida quyida keltirilgan.

Argiope lobata (Pallas, 1772).

Material. ♀, Farg'ona viloyati Farg'ona tumaning Oqbilol sel ombori, 2022 yil.

Tarqalishi. Markaziy va Sharqiy Yevropa Ozarbayjon, Turkiya, Gruzuya, Rossiya va boshqa mamlakatlar [8]. Farg'ona vodiysidagi yashash joyi. Namuna 2022-yil 27-iyun kuni Oqbilol qishlog' yaqinida harorti 33°C issiq havoda topilgan. O'rgimchak erdan 37 sm balandlikda, yulg'un o'simligiga to'r to'qigan xolda bolgan. *Argiope* turiga xos tarzda, u o'z tarmog'ining markazida L1-L2 va L3-L4 oyoqlarini juft qilib cho'zgan.



1-rasm

Joyning geografik malumotlari . 40°17'37"N 71°41'04"E (dengiz sathidan 709 m balandlikda).

Tavsif. 1-rasm. Urg'ochi. Namunaning tana uzunligi 17,37 mm, CL esa 10,40 mm. Oyoq o'lchovlari: L1 - 10,93-3,14-7,28-10,20-3,05 (34,61); L2 – 10,38-3,36-7,45-9,95-3,03 (34,17); L3 - 6,63-2,25-3,54-4,84-2,13 (19,39); L4 - 11,44-3,27-6,91-10,88-3,19 (35,69).

Qo'shimcha ma'lumot. Biz o'rgangan namunaning o'lchami tur uchun belgilangan 17,37 mm o'lchamga to'g'ri keladi.

Adabiyotlar ro'yxati (REFERENCES)

1. Platnick N.I. *The World Spider Catalog, Version 24*. Museum of Natural History (2012). Online at <http://research.amnh.org/iz/spiders/catalog>, accessed on 12.02.2023.
2. Юнусов, М. М., Б. Х. Бахромова, and М. Ш. Мирзошарипова. "ФАРФОНА ВОДИЙСИ ЧЎЛ, ТОҒ, АДирЛИКЛАРИДАГИ БИОТОПЛАРДА УЧРОВЧИ ЎРГИМЧАКЛАР РЎЙХАТИ ВА УЛАРНИНГ СИСТЕМАТИК ТАХЛИЛИ." *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2, no. 6 (2022): 223-229
3. Logunov, D.V. and Gromov, A.V., 2012. *Spiders of Kazakhstan*. Siri Scientific Press.
4. Marusik Yu.M., Omelko M.M., et al. A Redescription of *Aculepeira matsudae* (Aranei: Araneidae), a Species Recently Found in Far East Russia. *Arthropoda Selecta* **29** (2020), 121–126.
5. Levi H.W. The Orb-weaver Genera *Argiope*, *Gea*, and *Neogea* from the Western Pacific Region (Araneae: Araneidae, Argiopinae). *Bull. Mus. Comp. Zool.* **150** (1983), 247–338.
6. Tan J. *Argiope hoiseni*, a New Species of the Spider Genus *Argiope* (Araneae, Araneidae) from Peninsular Malaysia Based on Morphology and Molecular Analyses. *Zootaxa* **4457** (2018), 129–142.
<https://doi.org/10.11646/zootaxa.4457.1.6>
7. *World Spider Catalog. Version 24. Natural History Museum Bern* (2023). Online at <http://wsc.nmbe.ch>, accessed on 28.02.2022. <https://doi.org/10.24436/2>
8. Nentwig W., Blick T., et al. *Spiders of Europe* (2021). Online at <https://araneae.nmbe.ch/>, accessed on 28.02.2022.
<https://doi.org/10.24436/1>